

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI



Ro'yxatga olindi: № BD-60220300-1.09

2024 yil «__» iyul

TARIXIY GEOGRAFIYA

O'QUV DASTURI

Bilim sohasi: 100 000 – Gumanitar soha
Ta'lim sohasi: 220 000 – Gumanitar fanlar
Ta'lim yo'nalishi: 60220300 – Tarix

Mazkur fan dasturi xalqaro tan olingan reytinglarda birinchi 300 talik ro'yxatga kiruvchi **University of Exeter (Angliya) (51-100)** ta'lim dasturi asosida tayyorlandi.

<https://www.exeter.ac.uk/study/studyinformation/modules/info/?moduleCode=POL1000&ay=2024/5&sys=0>

Fan/modul kodi TGB1105		O'quv yili 2024-2025	Semestr 1	ECTS - Kreditlar 6	
Fan/modul turi Majburiy		Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 4	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)	
	Tarixiy geografiya	60	120	180	
2.	I. Fanning mazmuni Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarning tarixiy voqealarni geografik nuqtai nazardan tushunishini rivojlantirish, o'zgaruvchan geografik sharoitlar va hududiy o'zgarishlar qanday qilib tarixiy jarayonlar, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy rivojlanishlarga ta'sir ko'rsatganini tahlil qilishga o'rgatish, geografik bilimlarini tarixiy kontekstga joylashtirish orqali dunyoqarashini kengaytirishga yordam beradi. Fanning vazifasi – O'zbekistonda tarixiy jarayonlar va geografik o'zgarishlarni o'rganish, arxeologik tadqiqotlar olib borish, madaniy merosni saqlash, tarixiy manbalarni tahlil qilish, geografik nomlarning kelib chiqishini o'rganish va turizmni rivojlantirish kabi masalalarni o'rganish orqali talabalarni ko'nikma va malakalarini oshirish, ularni tarixiy geografik tadqiqotlar olib borishning asosiy uslub va vositalaridan foydalana olishlari hamda tadqiqot olib borishning o'ziga xos jihatlarini tahlil etish va ularni amalda qo'llash bo'yicha ko'nikma va malakalarini egallashga q'aratilgan. II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari) II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi: 1-mavzu. Tarixiy geografiya fanining vazifalari. Tarixiy geografiyaning asosiy bo'limlari. Tarixiy geografiya fanining maqsad va vazifalari. Tarixiy geografiyaning asosiy bo'limlari: hududiy tarixiy geografiya; davrlar bo'yicha tarixiy geografiya; tarmoqlar tarixiy geografiyasi (madaniy tarixiy geografiya, siyosiy tarixiy geografiya, iqtisodiy tarixiy geografiya, ijtimoiy tarixiy geografiya, ekologik tarixiy geografiya). Tarixiy geografiyani o'rganishda yordamchi fanlarning o'rni. Tarixiy geografik tadqiqotlarning asosiy metodlari fan sifatida. Tarixiy geografiyani o'rganishda yordamchi fanlarning o'rni. 2-mavzu. Tarixiy geogrifiyaning shakllanishi va taraqqiyoti. Dastlabki xaritalarni vujudga kelishi va dastlabki geografik bo'limlari yig'ilishi. Qadimgi Sharq, Yunoniston va Rimda geografik bilimlarni shakllanishi. A. Ortelining tarixiy geografiya shakllanishiga qo'shgan hissasi. F. Klyuvernning tarixiy geografik manbalar va asarlarga oid tanqidiy tahlili. J. B. De'anvil va fransiyalik Erudit maktabi boshqa vakillari tomonidan qadimgi va o'rta asrlar tarixiy geografiyasining o'rganilishi. XIX asrning 2-yarmida tarixiy geografiyaning yangi qirralari. Tarixiy geografiyaning Sharqda tadqiq etish				

muammolari. Al Xorazmiy, Beruniy, Narshaxiy, Mirxond, Xondamir, Bobur va boshqa allomalar asarlarining tarixiy geografiya uchun ahamiyati.

3-mavzu. Tarixiy kartografiya va uning asosiy yo'nalishlari. Tarixiy kartografiyaning shakllanishi va taraqqiyoti.

Tarixiy kartografiyaning fan sifatida mazmuni va tarixiy kartografik usullarning tarix fanida qo'llanilishi. Umumiy va alohida tarixiy karatalar. Tarixiy kartalarning turlari (tarixiy, siyosiy, tarixiy-iqtisodiy, tarixiy-harbiy, madaniy-tarixiy v.k) Tarixiy kartografiyaning paydo bo'lishi bosqichi va taraqqiyoti. Tarixiy o'quv kartalar. Qadimgi geografik kartalarning tarixiy manbashunoslik ahamiyati. Tarixiy kartalarni o'rganishning tarixshunoslik jihatlar. Ilk tarixiy atlslarning ahamiyatli jihatlar. O'rta Osiyoning hududlar aks ettirilgan tarixiy kartalar. O'rta Osiyolik olimlarning kartografik tadqiqotlar. Yevropalik olimlarning kartalar va ularning xususiyatlari. Rossiya imperiyasi va sobiq SSSRda tarixiy kartografiya. Mustaqil O'zbekistonda kartografiya fanining taraqqiyoti.

4-mavzu: O'rta Osiyoning eng qadimgi davridagi tarixiy geografiyasi

O'rta Osiyo hududida ibtidoiy jamoa tarixiy geografiyasining asosiy jihatlar va xususiyatlari. Temir asri (paleolit, mezolit, neolit) manzilgohlari tarixiy geografiyasi. Axreologik obyektlar tarixiy geografiyasi. Joytun. Kaltaminor. Tozabog'yob. Amirobod va boshqa madaniyatlar. Eniolit va bronza o'troq dehqonchilik manzilgohlari, ko'nmanchi qabilalar qo'rg'onlari, mozor-qo'rg'onlari va va.h.k) davridagi manzilgohlar va aholining tarqalishi.

5-mavzu: O'rta Osiyoning qadimgi davrdagi tarixiy geografiyasi

Qadimgi Xorazm, So'g'd va Baqtriyaning tarixiy geografiyasi. Ahamoniylar hukmronligi davrida O'rta Osiyo tarixiy geografiyasi (mil.avv. 6-4 asrlar). Asosiy tarixiy viloyatlar, aholi joylashuvi. O'rta Osiyo tabiiy geografiyasining xususiyatli jihatlar; shahrlar, davlat birlashmalarining shakllanishi. Aleksandr Makedonskiy harbiy yurishlari va yunon-makedon istelolari davri tarixiy geografiyasi. Spitamen qo'zg'aloni tarixiy geografiyasiga tavsif. Salavkiylar davlati hukmronli davrida So'g'd (So'g'diyona) va Baqtriyaning tarixiy geografiyasi. Ma'muriy-hududiy bo'linish, shaharlar va asosiy mintaqalar. Yunon-baqtriya podsholigi tarixiy geografiyasi. Buyuk ipak yo'liga tarixiy-geografik tavsif. Asosiy yo'nalish va tarmoqlari. Kushon podsholigi tarixiy geografiyasi. Qadimgi yunon va Rim xaritalari va ularda O'rta Osiyo hududini aks etishi. Sharq mamlakatlari xaritalarida O'rta Osiyo hududi.

6-mavzu. O'rta Osiyoning o'rta asrlardagi tarixiy geografiyasi.

O'rta Osiyo hududida ilk feodal davlatlarning tashkil topishi. Eftaliylar davlati tarixiy geografiyasi. O'rta Osiyo turk xoqonligi tarkibida (VI-VII asrlarga tarixiy geografik tavsif). Arab xalifaligining O'rta Osiyoni istilo qilish tarixiy geografiyasi. O'rta Osiyo arab xalifaligi tarkibida. Tarixiy-siyosiy geografiya. O'rta Osiyoda xalifalik hokimiyatiga qarshi xalq harakatlari geografiyasi (Moaqanna va.h.k). XII asrda O'rta Osiyoda mustaqil davlatlarning tashkil topishi. Tohiriylar va Safforiylar davlatining tarixiy geografiyasi.

Somoniylar davlatining tarixiy geografiyasiga tavsif (chegaralari, iqtisodiy aloqalari, shaharlar). Qoraxoniylar davlatining tashkil topishi va tarixiy geografiyasiga tavsif. Xorazmning Ma'muniylar, G'aznaviy va Saljuqiylar davlatlari davridagi tarixiy geografiyasiga tavsif. Turkiy tili o'zbek xalqining shakllanishi va uning asosiy davrlari. Xorazmshohlar (Anushteginlar) davlati va uning tarixiy geografiyasi. O'rta Osiyoga mo'g'ullar bosqini. O'rta Osiyo xalqlarining bosqinchilarga qarshi harakatlari tarixiy geografiyasi. O'rta Osiyoning mo'g'ul uluslari (Chig'atoy ulusi, Oltin O'rda) tarkibidagi tarixiy geografiyasi: Kebekxon islohotlari va Movorounnahrning ma'muriy va hududiy bo'linishi. Chig'atoy ulusining qulashi. Movorounnahrning XIV asrning 50-60 yillaridagi va mo'g'ul xonlarining yurishlariga qarshi kurashlari tarixiy geografiyasi. Mahalliy olimlar tomonidan olib borilgan kartografik va geografik tadqiqotlar hamda ularning ahamiyati.

7-mavzu. Amir Temur va Temuriylar davlatining tarixiy geografiyasi.

Amir Temur davlatining shakllanishi va taraqqiyoti (ma'muriy-siyosiy chegaralar, harbiy yurishlar va.h.k). Amir Temur va Temuriylar davri gografiyasini yorituvchi manbalar. Temuriylar davlatining tarixiy geografiyasi. Ulug'bekning Movorounnahrdagi davlati. XV asr oxirida O'rta Osiyoning tarixiy geografiyasi. Temuriylar va Shayboniylar o'rtasidagi kurashlar tarixiy geografiyasi.

8-mavzu. O'rta Osiyoning xonliklar davrida tarixiy geografiyasi.

Shayboniylar davlati tarixiy geografiyasi. Etnik jarayonlar, o'zbek xalqi shakllanish jarayonining tugallanishi. Ashtarxoniylar va Xorazm davlatining tarixiy geografiyasi. XVII-XIX asrning 2-yarmida Buxoro amirligi, Xiva va Qo'qon xonliklarining siyosiy-ma'muriy va ma'muriy-hududiy bo'linishlari, xo'jalik, xalqlar, savdo aloqalari va tarixiy demografiyasiga tavsif. Yevropa va Sharq mamlakatlarida davr tarixiy xaritalari va ularning ahamiyati.

9-mavzu. O'rta Osiyoning Rossiya imperiyasi boshqaruvi davridagi tarixiy geografiyasi. 1917-1924 yillarda Turkiston.

Rossiya imperiyasi bosqini arafasida O'rta Osiyoni geografik va kartografik jihatdan o'rganilishi. O'rta Osiyoni Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi geografiyasi. Asosiy istehkomlar, harbiy yurishlar tarixiy geografiyasi. 1865-1867 yillarda Turkiston viloyati. 1867-yilda general-gubernatorlikning tashkil topishi, chegaralar va ma'muriy hududiy bo'linishi. Rossiya-Buxoro (1868-yil) va Rossiya-Xiva (1873-yil) urushlari; chegaralarning o'zgarishi. XIX asr 80-90 yillari va XX asr boshlarida Turkiston o'lkasining ma'muriy hududiy bo'linishi. Buxoro amirligi va Xiva xonligi tarixiy geoggrafiyasi. Qo'qon qo'zg'alonining tugallanishi (Po'latxon qo'zg'aloni va uning uch bosqichi), Qo'qon xonligining tugalanishi. Xo'jalik tarixiy geografiyasidagi o'zgarishlar. O'lkani kartografik jihatdan o'rganilishi va uning mazmun mohiyati. Ushbu tadqiqotlarni ahamiyati. 1917 yil fevraldan so'ng. Turkiston o'lkasi. 1917-1920-yillardagi keskin harbiy-siyosiy kurashlar davrining tarixiy gegrafiyasiga tavsif. Turkiston muxtoriyati. Turkiston ASSR

va uning tarixiy geografiyasi. 1917-1920-yillarda Buxoro va Xiva xonliklarining tarixiy geografiyasi. BXSР va XXSRning tashkil topishi.

10-mavzu. O'zbekiston SSRning tarixiy geografiyasi (1925-1991 yillar)

O'zbekistonning chegaralari va ma'muriy-hududiy bo'linishi. O'zbekiston poytaxtlari. Tojikiston O'zbekiston tarkibida. 1936-yilda Qoraqalpog'istonning avtonom Respublika sifatida O'zbekiston tarkibiga kirishi. O'zbekistonning xo'jaligi, aholisi va tabiiy geografiyasi. O'zbekistonning paxta monopoliyasiga aylantirilishi oqibatlari. Ekologik muammolar va atrof-muhit. Orol fojiasi. Transchegaraviy daryolardan foydalanish bo'yicha xalqaro shartnomalar.

11-mavzu. O'zbekiston Respublikasi tarixiy geografiyasi.

O'zbekiston Respublikasining tabiiy-geografik tavsifi va ma'muriy-hududiy tuzilishi. Aholi ko'payishi va migratsiyasi. Sanoat va qishloq xo'jaligi geografiyasi. Transport va aloqa yo'llari.

III. Amaliy mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Tarixiy geografiyaning maqsad va vazifalari. Tarixiy geografiyaning asosiy bo'limlari.
2. Tarixiy geografiyaning shakllanishi va taraqqiyoti.
3. Tarixiy kartografiya va uning asosiy yo'nalishlari.
4. O'rta Osiyoning ibtidoiy jamoa davridagi tarixiy geografiyasi.
5. O'rta Osiyoning antik davrdagi tarixiy geografiyasi.
6. O'rta Osiyoning ilk o'rta asrlardagi tarixiy geografiyasi.
7. O'rta Osiyoning IX-XIII asrlardagi tarixiy geografiyasi.
8. Amir Temur va Temuriylar davri tarixiy geografiyasi.
9. O'rta Osiyoning xonliklar davri tarixiy geografiyasi.
10. O'rta Osiyoning chor Rossiya boshqaruvi davridagi tarixiy geografiyasi.
11. 1917-1924 yillarda Turkiston.
12. O'zbekiston sovet ittifoqi tarkibida bo'lgan davrda geografik o'zgarishlar.
13. O'zbekiston SSR iqtisodiyoti. Yangi yerlarni o'zlashtirish. Orol fojiasi.
14. O'zbekiston Respublikasining tarixiy geografiyasi (1991-2023 yillar).
15. O'zbekiston Respublikasining tarixiy geografiyasi (1991-2023 yillar).

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interfaol usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. O'zbekistonning qadimgi davlatlari va ularning geografik xususiyatlari
2. O'zbekistonning qadimgi shaharlarining joylashuvi va rivoji
3. O'zbekiston hududida arxeologik qazishmalar va ularning tarixiy ahamiyati
4. Qadimgi O'zbekistonda qishloq xo'jaligi va uning geografik tarixi
5. O'zbekistonning o'rta asrlaridagi savdo yo'llari va savdo markazlari
6. Islom davrida O'zbekistonning madaniy va ilmiy markazlari
7. O'rta asr O'zbekistonidagi shaharlar va ularning ijtimoiy-iqtisodiy roli
8. O'zbekistonning xonliklar davridagi ma'muriy boshqaruvi va hududiy chegaralari
9. O'zbekistonning chor Rossiyasi davrida iqtisodiy va ijtimoiy o'zgarishlar
10. O'zbekiston SSR davrida sanoat rivoji va uning geografik ta'siri
11. O'zbekistonning turizm geografiyasi va rivojlanish strategiyalari
12. Qadimgi O'zbekistonda irrigatsiya tizimlari va ularning ta'siri
13. O'zbekistonning tarixiy hududlarida geografik nomlar va ularning etimologiyasi
14. O'zbekistonning qadimgi va o'rta asr shaharlarida arxitektura va urbanizatsiya
15. O'zbekistonning tabiiy resurslari va ularning tarixiy geografiyaga ta'siri
16. O'zbekistonning turizm geografiyasi va tarixiy obidalar
17. O'zbekistonning ekologik muammolari va tarixiy ko'rinishlari
18. O'zbekiston hududidagi qadimgi yo'llar va transport tizimlari
19. Sovet davrida O'zbekistonning qishloq xo'jaligi va yerlarni o'zlashtirish siyosati
20. Mustaqil O'zbekistonning xalqaro iqtisodiy aloqalari va ularning geografik ta'siri
21. O'zbekistonning hududiy rivojlanishida eng yangi texnologiyalardan foydalanish
22. O'zbekistonning tarixiy geografiyasida etnik va madaniy o'zgarishlar
23. O'zbekistonning iqtisodiy geografiyasida kapital va resurs taqsimoti
24. O'zbekistonning iqlim o'zgarishlari va ularning tarixiy ta'siri
25. O'zbekistonning tarixiy geografiyasi bo'yicha ilmiy tadqiqotlar va ilmiy muammolar
26. O'zbekistonning o'rta asrdagi ma'muriy bo'linishlari va ijtimoiy-iqtisodiy tuzilishi
27. O'zbekiston tarixida savdo va iqtisodiy aloqalarning geografik o'zgarishlari
28. O'zbekistonning qadimgi va o'rta asrlaridagi madaniy va ilmiy markazlarning joylashuvi
29. O'zbekiston tarixida hukumat va ijtimoiy tuzilmalar o'zgarishlari
30. O'zbekistonning qishloq xo'jaligi tarixida ekologik muammolar va ularning yechimlari
31. O'zbekistonning mustaqillik davrida hududiy iqtisodiy islohotlar
32. O'zbekistonning mustaqillik davrida xalqaro savdo va iqtisodiy aloqalarning o'zgarishi
33. Qadimgi O'zbekistonda savdo va savdo yo'llarining tarixi

34. O'zbekistonning tarixiy kartografiyasida yangi tadqiqotlar
35. O'zbekiston hududida arkeologik tadqiqotlar va tarixiy topilmalar
36. O'zbekistonning tarixiy geografiyasida etnografik tadqiqotlar
37. O'zbekistonning tarixiy geografiyasida madaniy merosning saqlanishi
38. O'zbekistonning mustaqillik davrida ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanish
39. O'zbekistonning tarixiy geografiyasida ekologik va iqlim muammolarining tahlili
40. O'zbekistonning tarixiy shaharlarida urbanizatsiya jarayonlari
41. O'zbekistonning iqtisodiy geografiyasida yangi iqtisodiy hududlar
42. O'zbekiston tarixidagi muhim geografik tadqiqotlar va ekspeditsiyalar
43. O'zbekistonning tarixiy geografiyasida qishloq va shahar infratuzilmasining rivoji
44. O'zbekistonning mustaqillik davridagi demografik o'zgarishlar
45. O'zbekiston tarixida hukumat va ma'muriy tuzilmalar o'zgarishlari
46. O'zbekistonning madaniy geografiyasida madaniy almashuvlar
47. O'zbekistonning tarixiy geografiyasida yirik tabiiy obidalar va ularning saqlanishi
48. O'zbekiston tarixida milliy ozodlik harakatlari va ularning geografik jihatlari
49. O'zbekiston tarixidagi muhim iqtisodiy va siyosiy voqealar
50. O'zbekistonning tarixiy geografiyasida iqtisodiy faoliyat va iqtisodiy xususiyatlar
51. O'zbekistonning qadimgi va o'rta asrlaridagi ma'muriy boshqaruv
52. O'zbekiston tarixidagi shaharlarni rivojlantirish va urbanizatsiya
53. O'zbekistonning tarixiy geografiyasida ijtimoiy va madaniy o'zgarishlar
54. O'zbekiston tarixida xalqaro aloqalar va diplomatiya
55. O'zbekistonning iqtisodiy geografiyasida yangi sanoat tarmoqlari
56. O'zbekistonning tarixiy geografiyasida tarixiy xaritalar va ularning tahlili
57. O'zbekiston tarixida iqtisodiy va siyosiy islohotlar
58. O'zbekiston tarixida madaniy va ilmiy markazlarning roli
59. O'zbekistonning mustaqillik davrida ijtimoiy va iqtisodiy muammolar
60. O'zbekiston tarixida tabiiy resurslar va ularning ekspluatatsiyasi

Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talablar Mustaqil ta'limni tashkil etish tartibida ko'rsatilgan mezon asosida amalga oshiriladi.

3. V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)

Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:

- O'zbekistonning tarixiy davrlari davomida hududiy va iqtisodiy o'zgarishlarni, tabiiy sharoitlar va ijtimoiy rivojlanishni tizimli ravishda tahlil qila olish, tarixiy xaritalar va arxeologik ma'lumotlarga asoslanib, tarixiy voqealarni geografik kontekstda tushunish, shuningdek, ekologik va madaniy muammolarni baholash **qobiliyatiga ega bo'lishi**;
- tarixiy va geografik ma'lumotlarni tahlil qilish, tarixiy xaritalarni o'qish va tushunish, ma'muriy-hududiy o'zgarishlarni baholash, iqtisodiy va

	ekologik jarayonlarni tarixiy kontekstda baholash ko'nikmalariga ega bo'lishi; • O'zbekiston tarixiy geografiyasi fanini o'qigan talaba, tarixiy jarayonlar, geografik o'zgarishlar, iqtisodiy rivojlanish, ma'muriy-hududiy tuzilma, ekologik muammolar va madaniy merosni tahlil qila oladi, shu jumladan, tarixiy xaritalar, arxeologik topilmalar va tarixiy ma'lumotlarga asoslangan holatlarni chuqur tahlil qila olishi; • tarixiy xaritalarni yaratish, hududiy rejalashtirish va iqtisodiy rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish, ekologik va madaniy muammolarni hal qilish, shuningdek, arxeologik va tarixiy tadqiqotlarni amalga oshirish kabi kompetensiyalar orqali talabalar tarixiy-geografik bilimlarni amaliyotda qo'llay olishi; • Jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar taqdim eta olish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.
4.	VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari: • ma'ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • seminarlar (mantiqiy fiklash, tezkor savol-javoblar); • guruhlarda ishlash; • taqsimotlar qilish; • individual loyihalar.
5.	VII. Kreditlarni olish uchun talablar: Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va nazorat uchun berilgan vazifa topshiriqlarni bajarish, joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni muvaffaqiyatli topshirish.
6.	Asosiy adabiyotlar 1. Saidboboyev Z. Tarixiy geografiya va kartografiya [Matn] / Z.Saidboboyev. - Toshkent: Shafolat Nur Fayz, 2020. - 160 b. 2. Ilhomov Z. Tarixiy geografiya (O'zbek xonliklari tarixiy geografiyasi). O'quv qo'llanma. T.: - 2020. – 169 bet. 3. Harley and Woodward. The History of Cartography. Vol. 2. bk 2, Cartography in Traditional East and Southeast Asian Societies. - Chicago: University of Chicago Press, 1994. 4. Robin A. Butlin. Historical geography : through the gates of space and time. - New York, 1993. Qo'shimcha adabiyotlar

5. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. -Toshkent: Uzbekiston, 2017 - 592 b.
6. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. -Toshkent: O'zbekiston, 2018.-5086.
7. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug' xalqning — ishi xam ulug', xayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. 3-jild. - Toshkent: Uzbekiston, 2019.-400 b.
8. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari. 4-jild. - Toshkent: Uzbekiston, 2020.- 452 b.
9. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. -Toshkent: O'zbekiston, 2021.
10. O'zbekistonning yangi tarixi. I-III jild. - T.: Sharq, 2000.
11. O'zbekiston davlatchiligi tarixi ocherklari. - T.: Sharq, 2001.
12. Sagdullayev A. Qadimgi O'zbekiston ilk yozma manbalarda. - T., 1996.
13. Преображенский А.И. и др. Составление и редактирование специальных карт.-М., 1961.
14. Sagdullayev A. Qadimgi O'zbekiston ilk yozma manbalarda. - T., 1996.
15. Yuldosheva B. O'rta Osiyoning ibtidoiy jamoa davridagi tarixiy geografiyasi. Gospodarka i Innovatsie., 42, 9-13.
16. Yuldosheva B. O'zbekistonning tabiiy tarixiy geografiyasi (1925-1991-yillar). Iqro indexing, 9(2), 631-634.
17. Ilhomov Z. Tarixiy geografiya (O'zbek xonliklari tarixiy geografiyasi). O'quv qo'llanma. T.: - 2020. – 169 bet.
18. Obidov U. Tarixiy geografiyadan uslubiy qo'llanma. Farg'ona, - 2006. – 88 bet.
19. Hasanov H. O'rta Osiyolik sayyohlar. T.: - 1981.

Axborot manbaalari

1. www.president.uz
2. www.gov.uz
3. www.lex.uz
4. www.ziynet.uz

- | | |
|----|---|
| 7. | Fan dasturi Buxoro davlat universiteti Ilmiy kengashining 2024 yil 2 iyuldagi 11-sonli yig'ilishi bayonnomasi bilan tasdiqlangan. |
| 8. | Fan/modul uchun ma'sullar:
B.Yuldosheva – BuxDU, “Jahon tarixi” kafedrasi dotsenti, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori. |
| 9. | Taqrizchilar:
S.KenjayeV – BuxPI, Ijtimoiy fanlar kafedrasi dotsenti, tarix fanlar bo'yicha falsafa doktori
F.BoBojonova – BuxDU, Buxoro tarixi va ... kafedrasi dotsenti, tarix fanlar bo'yicha falsafa doktori |